



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

STRATEGIC ASPECTS OF UZBEKISTAN–TURKEY RELATIONS AT THE MODERN STAGE

Javlon Abdullayev

Researcher

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Uzbekistan, Turkey, strategic partnership, geopolitics, Turkic world, integration, trade and economic cooperation, transport and logistics, security, “4+4” mechanism.

Received: 11.04.26

Accepted: 12.04.26

Published: 13.04.26

Abstract: This article analyzes the main directions of strategic relations between Uzbekistan and Turkey in the modern stage. It examines the development trends in political and diplomatic relations, trade and economic cooperation, investment activities, transport and logistics, as well as cultural, humanitarian, and security cooperation. Particular attention is given to the integration processes within the Turkic world, the formation of the Ankara–Tashkent geopolitical axis, and the “4+4” mechanism, highlighting their importance for regional security. The paper also explores the strategic prospects of bilateral relations in the context of regional and global dynamics.

ZAMONAVIY BOSQICHDA O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARINING STRATEGIK JIHLARI

Javlon Abdullayev

Tadqiqotchi

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Turkiya, strategik sheriklik, geosiyosat, turkiy dunyo, integratsiya, savdo-iqtisodiy hamkorlik, transport-logistika, xavfsizlik, 4+4 mexanizmi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy bosqichda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi strategik munosabatlarning asosiy yo‘nalishlari tahlil qilinadi. Unda ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy-diplomatik aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, transport-logistika, madaniy-gumanitar hamda

xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikning rivojlanish tendensiyalari ilmiy jihatdan yoritilgan. Shuningdek, turkiy davlatlar integratsiyasi, Anqara–Toshkent geosiyosiy o‘qi hamda “4+4” mexanizmining shakllanishi va uning mintaqaviy xavfsizlikdagi ahamiyati ochib berilgan. Maqolada O‘zbekistonning mintaqaviy va global jarayonlardagi o‘rni hamda ikki tomonlama munosabatlarning strategik istiqbollari tahlil qilinadi.

СТРАТЕГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ОТНОШЕНИЙ УЗБЕКИСТАНА И ТУРЦИИ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ

Жавлон Абдуллаев

Исследователь

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Узбекистан, Турция, стратегическое партнерство, геополитика, тюркский мир, интеграция, торгово-экономическое сотрудничество, транспорт и логистика, безопасность, механизм «4+4».

Аннотация: В данной статье анализируются ключевые направления стратегических отношений между Узбекистаном и Турцией на современном этапе. Освещаются тенденции развития политико-дипломатических связей, торгово-экономического сотрудничества, инвестиционной деятельности, транспортно-логистических проектов, а также культурно-гуманитарного и военно-безопасностного взаимодействия. Особое внимание уделяется интеграционным процессам в рамках тюркского мира, формированию геополитической оси Анкара–Ташкент и механизма «4+4», а также их значению для региональной безопасности. В статье также рассматриваются стратегические перспективы двустороннего сотрудничества в контексте региональных и глобальных процессов.

Kirish. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi do‘stlik hamda hamkorlik munosabatlari tarixga borib taqaladi. Ikki xalqning umumiy tarixiy merosi, til, madaniyat va ma’naviy qadriyatlarining yaqinligi ushbu aloqalarning mustahkam asosini tashkil etadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan so‘ng Turkiya bilan yaqin hamkorlik aloqalarining shakllanishi alohida ahamiyat

kasb etdi. Ta'kidlash joizki, Turkiya Respublikasi O'zbekiston Respublikasining mustaqilligini dunyoda birinchilardan bo'lib tan olgan davlatlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunga kelib O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi hamkorlik iqtisodiyot, ta'lim, turizm, sanoat, texnologiya va madaniyat kabi ko'plab sohalarda izchil rivojlanib bormoqda. Ikki davlat o'rtasidagi aloqalar nafaqat ikki tomonlama davlatlararo munosabatlar darajasida, balki mintaqaviy integratsiya jarayonlari hamda xalqaro maydonda ham strategik ahamiyat kasb etib bormoqda.

2017-yil 25-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasiga rasmiy tashrif bilan bordi. Ushbu tashrif ikki mamlakat o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etdi. 2018-yil 30-aprel kuni Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'anning O'zbekistonga rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Oliy darajadagi muzokaralar davomida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish, investitsiyalarni jalb etish, transport-kommunikatsiya tizimlarini rivojlantirish hamda boshqa ko'plab sohalarda hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan qator bitimlar imzolandi. Keyingi yillarda ham ikki davlat rahbarlari o'rtasidagi muloqotlar muntazam davom etdi. 2021-yil 10-mart kuni Toshkent shahrida bo'lib o'tgan uchrashuv chog'ida ikki mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni yanada kengaytirishga qaratilgan kelishuvlarga erishildi. 2022-yil 16-noyabr kuni Samarqand shahrida o'tkazilgan sammit davomida esa savdo-iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, o'zaro savdo hajmini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadida yangi bitimlar imzolandi.

2023-yil 6–7-iyun kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Anqara va Istanbul shaharlariga amalga oshirgan rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi strategik hamkorlikni yanada mustahkamlashda muhim bosqich bo'ldi. Ushbu tashrif doirasida iqtisodiy, investitsiyaviy va texnologik hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan yirik kelishuvlar imzolandi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi aloqalarda turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi hamkorlik ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashkilotning asosiy maqsadi turkiy tilli davlatlar o'rtasida siyosiy, iqtisodiy, madaniy va gumanitar hamkorlikni rivojlantirishdan iborat bo'lib, O'zbekiston va Turkiya mazkur platforma doirasida muntazam ravishda rasmiy uchrashuvlar va maslahatlashuvlar o'tkazib kelmoqda. So'nggi yillarda O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi munosabatlar sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarilib, "keng qamrovli strategik sheriklik" darajasiga yetdi. Ushbu sheriklik siyosiy, iqtisodiy, savdo, transport, madaniyat, ta'lim va texnologiya kabi deyarli barcha sohalarni qamrab oladi.

2026-yil yanvar oyida Anqara shahrida o'tkazilgan Oliy darajadagi Strategik hamkorlik kengashining to'rtinchi yig'ilishi ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. 29-yanvar kuni Oqsaroy qarorgohida bo'lib o'tgan ushbu yig'ilish davomida ikki

mamlakat o'rtasidagi strategik sheriklikni mustahkamlashga qaratilgan bir nechta qarorlar va kelishuvlar qabul qilindi. Muzokaralar davomida siyosiy muloqotni rivojlantirish, savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsiyalarni jalb etish, transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish, energetika, madaniyat hamda gumanitar sohalardagi hamkorlikni chuqurlashtirish bilan bog'liq masalalar atroficha muhokama qilindi. Uchrashuv yakunlari bo'yicha imzolangan hujjatlar ikki davlat o'rtasidagi amaliy hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan bo'lib, ular turli ustuvor yo'nalishlarni qamrab oldi. Xususan, quyidagi sohalarda hamkorlikni yanada rivojlantirish belgilab olindi:

- Sog'liqni saqlash, ta'lim hamda harbiy tibbiyot yo'nalishlarida o'zaro hamkorlikni kengaytirish;
- Iqtisodiy va moliyaviy sheriklikni mustahkamlash;
- Konchilik sanoati sohasida qo'shma loyihalarni amalga oshirish va tajriba almashish;
- Xalqaro transport yo'laklarini rivojlantirish bo'yicha hamkorlikni kuchaytirish;
- Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatini takomillashtirish yuzasidan tajriba va boshqaruv mexanizmlarini uyg'unlashtirish;
- Yadro xavfsizligi, jisman himoya qilish, radiatsion muhofaza masalalari bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish va axborot almashuvini yo'lga qo'yish;
- Migratsiya jarayonlarini tartibga solish, fuqarolarni o'z mamlakatiga qaytarish masalalarida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish;
- O'zbekiston Respublikasi Din ishlari bo'yicha qo'mitasi hamda Turkiya Din ishlari boshqarmasi o'rtasida hukumatlararo hamkorlikni rivojlantirish;
- Ikki davlat Tashqi ishlar vazirliklari o'rtasida 2026–2027-yillarga mo'ljallangan hamkorlik dasturini amalga oshirish;
- O'zbekiston Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi hamda Turkiya Oliy ta'lim kengashi o'rtasida hamkorlik bayonnomasini imzolash;
- Madaniyat sohasida 2026–2027-yillarga mo'ljallangan ikki tomonlama hamkorlik rejasini amalga oshirish.

Anqara shahrida o'tkazilgan tadbirlar doirasida Hatay viloyatining Arsuz tumanida "O'zbekiston" nomli turar joy majmuasining ochilish marosimi hamda Istanbul shahrida o'zbek maktabi qurilishini boshlashga bag'ishlangan tantanali tadbirlar tashkil etildi. Ushbu loyihalar ikki davlat o'rtasidagi ijtimoiy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, Turkiyada istiqomat qilayotgan o'zbekistonlik fuqarolar uchun qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Anqara Inqiroz va siyosat tadqiqotlari markazi (ANKASAM) rahbari, professor

Mehmet Seyfettin Erol O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro siyosiy jarayonlardagi o‘rni hamda uning Turkiya bilan munosabatlari haqida mamlakatning nufuzli nashrlaridan biri bo‘lmish Hürriyet gazetasida o‘z fikrlarini bildirdi. Uning ta’kidlashicha, zamonaviy xalqaro tizim avvalgi nisbatan barqaror tuzilmasidan asta-sekin uzoqlashib, tobora murakkablashib borayotgan geosiyosiy muhit bilan tavsiflanmoqda. Professor Erolning fikricha, bunday o‘zgaruvchan global geosiyosiy sharoitda Markaziy Osiyoning markazida joylashgan turkiy dunyo davlatlari faol geosiyosiy aktorga aylanib bormoqda. Bu jarayonda Yevrosiyo geosiyosatining markazida joylashgan O‘zbekistonning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Uning qayd etishicha, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan tashqi va ichki siyosat, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan tashabbuslar xalqaro ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar – raqamlashtirish jarayonlari, investitsiya strategiyalarining faollashuvi, infratuzilma va ta’lim loyihalarining rivojlanishi, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish, turkiy dunyo davlatlari bilan hamkorlikni chuqurlashtirish hamda ko‘p vektorli diplomatiya siyosati “Yangi O‘zbekiston” konsepsiyasining asosiy tarkibiy qismlari sifatida e’tirof etilmoqda. Ushbu jarayonlar nafaqat mintaqaviy darajada, balki global miqyosda ham O‘zbekistonning strategik ahamiyatini oshirib borayotganini ko‘rsatadi.

So‘nggi yillarda Anqara–Toshkent geosiyosiy o‘qi Yevrosiyo makonida strategik muvofiqlashtiruv yo‘nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. 2016–2026-yillar oralig‘idagi davr ushbu yangi hamkorlik modelining shakllanishi va mustahkamlanishi uchun po‘ydevor yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga amalga oshirgan tashrifi mavjud keng qamrovli strategik sheriklikni yanada mustahkamlashda tarixiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashrif ikki davlat rahbarlari tomonidan global miqyosda beqarorlik va geosiyosiy noaniqliklar kuchayib borayotgan sharoitda hamkorlikni rivojlantirishga tayyorlik mavjudligini ifodalovchi siyosiy signal sifatida baholanmoqda. Mazkur tashrif ikki tomonlama munosabatlar nuqtai nazaridan nafaqat geosiyosiy va strategik ahamiyatga ega, balki gumanitar jihatdan ham chuqur mazmunga ega. 2023-yilda Turkiyada sodir bo‘lgan kuchli zilzilaga O‘zbekiston tezkor ravishda javob qaytarib, zarur gumanitar yordamni safarbar etdi va ofatdan zarar ko‘rgan hududlarga ko‘mak ko‘rsatdi. Ushbu tashrif doirasida Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an hamda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan Hatay viloyatida o‘zbek xalqi ko‘magida bunyod etilgan turar joy majmualarini foydalanishga topshirish rejalashtirilgani ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning gumanitar diplomatiya jihatini yaqqol namoyon etadi. Tashrif davomida Istanbul shahrida chet eldagi birinchi o‘zbek maktabining qurilishiga tamal toshi qo‘yilishi rejalashtirilgani ham alohida ahamiyatga ega. Bu tashabbus mamlakat ichida ta’lim

sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning xorijdagi o‘zbek diasporasi farzandlariga ham tatbiq etilishini ko‘zda tutayotganini ko‘rsatadi. Anqara Inqiroz va siyosat tadqiqotlari markazi rahbari, professor Mehmet Seyfettin Erolning ma’lum qilishicha, Prezident Shavkat Mirziyoyevning rasmiy tashrifi 20-yanvar kuni o‘tkazilgan muzokaralarning davlat rahbarlari darajasida tasdiqlanishi hamda strategik hamkorlikning uzluksizligini ta’minlash nuqtai nazaridan o‘zgacha ahamiyat kasb etadi. Ushbu tashrif Markaziy Osiyo, Kavkaz va Yevroosiyo mintaqalari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni strategik doirada mustahkamlash imkoniyatlarini kengaytirishi bilan ham e’tiborga loyiq.

Turkiy dunyo va Anqara – Toshkent geosiyosiy liniyasi

Anqara Inqiroz va siyosat tadqiqotlari markazi rahbari, professor Mehmet Seyfettin Erolning ta’kidlashicha, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligi davrida O‘zbekistonning turkiy dunyo davlatlari bilan munosabatlari mamlakat tashqi siyosatining eng muhim strategik yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Ayniqsa Prezident Mirziyoyev tashabbuslari bilan Turkiy Davlatlar Tashkiloti doirasidagi integratsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi va O‘zbekiston tashkilot faoliyatida faol hamda konstruktiv hamkor sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu integratsiya jarayoni turkiy davlatlar o‘rtasida madaniy, iqtisodiy va logistika aloqalarini mustahkamlashga qaratilgan qator strategik tashabbuslar orqali rivojlanmoqda. Jumladan, Yevroosiyo transport tizimida muhim o‘rin tutayotgan O‘rta Koridor loyihasi, energetika va transport infratuzilmasini rivojlantirish, qo‘shma akademik platformalar tashkil etish hamda madaniy festivallar o‘tkazish kabi tashabbuslar mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishga xizmat qilmoqda. Mazkur tashabbuslar o‘z navbatida mintaqada barqarorlik, xavfsizlik va iqtisodiy farovonlikni mustahkamlashga o‘z hissasini qo‘shmoqda. Bu jarayonda Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi hamkorlik alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki Shavkat Mirziyoyev davrida ikki mamlakat o‘rtasida shakllangan siyosiy uyg‘unlik va strategik qarashlarning yaqinligi Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi loyihalarni amalga oshirish jarayonini tezlashtirdi. Bu esa turkiy dunyoning iqtisodiy va transport integratsiyasini rivojlantirish, mintaqaviy barqarorlik va xavfsizlikni ta’minlashga qaratilgan umumiy strategik yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi. Anqara-Toshkent geosiyosiy yo‘nalishi mintaqada asosiy strategik aloqa yo‘lagini shakllantirdi. Ayniqsa “O‘rta koridor”ning iqtisodiy va logistika jihatdan rivojlanishi ushbu yo‘nalishning mintaqaviy hamda global savdo tizimlarida muhim o‘rin egallashiga imkon yaratmoqda. Natijada Anqara-Toshkent geosiyosiy liniyasi nafaqat ikki tomonlama hamkorlikning elementi, balki turkiy dunyoning kelajakdagi integratsiyasi hamda Markaziy Osiyoning geosiyosiy yaxlitligi,

barqarorligi, xavfsizligi va farovonligini ta'minlashda ham strategik omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonning Turkiy Davlatlar Tashkilotiga qo'shayotgan hissasi

O'zbekiston Turkiy Davlatlar Tashkilotiga nisbatan nisbatan kech qo'shilgan bo'lsa-da, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligi davrida mamlakat tashkilot faoliyatiga yangi strategik tashabbus va konseptual qarashlarni olib kirayotganini kuzatish mumkin. 2025-yil 7-oktabr kuni Gabala shahrida o'tkazilgan turkiy davlatlar rahbarlarining 12-sammitida O'zbekiston Prezidenti turkiy davlatlar o'rtasida siyosiy ishonch va strategik hamkorlikni mustahkamlash maqsadida "Strategik sheriklik, abadiy do'stlik va birodarlik to'g'risidagi shartnoma"ni imzolash tashabbusini ilgari surdi. Mazkur tashabbus turkiy davlatlar o'rtasidagi siyosiy yaqinlikni institutsional darajada mustahkamlashga qaratilgan qadam sifatida baholanadi. Shavkat Mirziyoyev global geosiyosiy vaziyatni muntazam tahlil qilish hamda muvofiqlashtirilgan qarorlar qabul qilish maqsadida turkiy davlatlar tashqi ishlar vazirlari va razvedka idoralari rahbarlarining doimiy qo'shma uchrashuvlarini tashkil etish taklifini ham ilgari surdi. Bu tashabbus mintaqaviy xavfsizlik va strategik muvofiqlashtirish mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qilishi mumkin. Prezident Mirziyoyev Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi ko'p qirrali hamkorlikni kengaytirish va tizimli rivojlantirish maqsadida "2030-yilgacha mo'ljallangan rivojlanish strategiyasi va yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish zarurligini ta'kidladi. Ushbu strategiya doirasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, sanoat kooperatsiyasini chuqurlashtirish hamda iqtisodiy integratsiyani jadallashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida belgilandi. Mirziyoyev Turkiy investitsiya jamg'armasi faoliyati doirasida qo'shma investitsiya loyihalarini samarali amalga oshirish maqsadida Bosh vazir o'rinbosarlari darajasida faoliyat yuritadigan "Turkiy davlatlarning iqtisodiy sherikligi bo'yicha doimiy kengash"ni tashkil etishni taklif qildi. O'zbekiston ushbu kengash faoliyati uchun Toshkent shahrida maxsus joy ajratishga tayyor ekanini ham ma'lum qildi. Turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy va texnologik hamkorlikni mustahkamlash maqsadida yashil energetika, ilg'or texnologiyalar hamda strategik foydali qazilmalarni rivojlantirish yo'nalishida "Turkiy sanoat ittifoqi" hamda "Yashil transformatsiya konsorsiumi"ni tashkil etish tashabbusi ham ilgari surildi. Ushbu tashabbuslar turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, innovatsion rivojlanishni rag'batlantirish hamda mintaqaning barqaror iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashga qaratilgan strategik qadamlar sifatida baholanmoqda.

2018-yilda Turkiya va O'zbekiston o'rtasida ikki tomonlama munosabatlarni institutsional jihatdan mustahkamlash maqsadida Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashi tashkil etildi. Mazkur mexanizm siyosiy muloqotni tizimli asosda olib borish hamda savdo-iqtisodiy,

investitsiyaviy va gumanitar hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilmoqda. 2020-yil 19-fevral kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Turkiya Respublikasi Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘anning taklifiga binoan Turkiyaga rasmiy tashrif bilan bordi. Mazkur tashrif davomida ikki davlat rahbarlari O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi savdo hajmini 5 milliard AQSh dollariga yetkazish maqsadini e‘lon qildilar. Ushbu maqsad ikki mamlakat o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikni yanada kengaytirish va yangi investitsiya loyihalarini amalga oshirish uchun strategik yo‘nalish sifatida belgilandi. Savdo-iqtisodiy aloqalar dinamikasini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 2016–2019-yillar davomida Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi savdo hajmi izchil o‘shish tendensiyasini namoyon etgan. Turkiya bilan savdo hajmi 2016-yilda 1,2 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2017-yilda 1,5 milliard dollarga, 2018-yilda esa 1,7 milliard dollarga yetgan. O‘zbekiston Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi ma‘lumotlariga ko‘ra, 2019-yilga kelib bu ko‘rsatkich 2,5 milliard AQSh dollariga yetgan. Shu davrda O‘zbekistonning asosiy tashqi savdo hamkorlari tarkibida Turkiya ham muhim o‘rin egallagan. 2019-yil ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonning yetakchi savdo hamkorlari orasida Xitoy 7,6 milliard dollar (18,1%) bilan birinchi o‘rinni egallagan bo‘lsa, undan keyingi o‘rinlarda Rossiya 6,6 milliard dollar (15,7%), Qozog‘iston 3,3 milliard dollar (8%), Janubiy Koreya 2,7 milliard dollar (6,5%) va Turkiya 2,5 milliard dollar (6%) bilan joylashgan. Investitsiyaviy hamkorlik ham sezilarli darajada kengayib bordi. Turkiya bilan hamkorlikda amalga oshirilgan investitsiya loyihalarining umumiy qiymati 2017-yilda 20 million AQSh dollaridan kam bo‘lgan bo‘lsa, 2020-yilga kelib bu ko‘rsatkich 500 million dollardan oshdi. O‘zbekiston Davlat statistika qo‘mitasi ma‘lumotlariga ko‘ra, mamlakat hududida turk kapitali ishtirokida faoliyat yuritayotgan korxonalar soni ham izchil oshib bordi: 2018-yilda 915 ta bo‘lgan bunday korxonalar soni 2026-yilda 2137 taga yetdi.

Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi munosabatlarning yangi bosqichida turizm sohasi ham ikki davlat hamkorligining yo‘nalishlaridan biriga aylandi. O‘zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi hamda sayyohlik infratuzilmasining izchil rivojlanishi natijasida Turkiya fuqarolari uchun mamlakat tobora jozibador turistik yo‘nalishga aylanib bormoqda. Statistik ma‘lumotlarga ko‘ra, Turkiyadan O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni so‘nggi yillarda keskin o‘sd: 2018-yilda bu ko‘rsatkich 41 ming nafardan oshgan. 2018-yil fevraldan boshlab O‘zbekiston tomonidan Turkiya fuqarolari uchun 30 kunlik vizasiz rejim joriy etilishi ushbu jarayonni yanada jadallashtirdi. Mazkur qaror ikki mamlakat o‘rtasidagi turizm almashinuvining keskin oshishiga olib keldi. Natijada 2019-yilda Turkiyadan O‘zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 63539 kishini tashkil etdi, 2020-yilning yakuniga ko‘ra 20958 kishi, 2021-yilda 44168 kishi, 2022-yilning 9 oy davomida 56792 turkiyalik turistlar tashrif buyurdi. Bu ko‘rsatkichlar ikki davlat

o'rtasidagi turizm sohasidagi hamkorlikning izchil kengayib borayotganini ko'rsatadi. Bundan tashqari, transport va logistika sohasidagi hamkorlik ham ikki mamlakat o'rtasidagi strategik munosabatlarning tarkibiy qismiga aylanmoqda. O'zbekiston temir yo'llari va Turkiya Davlat Temir yo'llari o'rtasida imzolangan hamkorlik bitimlari transport infratuzilmasini rivojlantirish yo'nalishidagi qadamlardan biri hisoblanadi. Qozog'iston tomonidan O'zbekistonni Transkaspian xalqaro transport yo'lagiga qo'shilish bo'yicha ilgari surilgan taklif ham mintaqaviy transport integratsiyasini kengaytirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. Ushbu tashabbus O'zbekistonga Kaspiy dengizi orqali global bozorga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda transport-logistika sohasida Turkiya bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtiradi. Mazkur jarayonlar istiqbolda "O'zbekiston – Turkiya – Yevropa" yo'nalishida multimodal logistika markazini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin. So'nggi yillarda ikki davlat o'rtasidagi yuqori darajadagi siyosiy va iqtisodiy munosabatlar nafaqat ikki tomonlama hamkorlikni rivojlantirmoqda, balki O'zbekistonning mintaqaviy va global integratsiya jarayonlaridagi ishtirokini ham sezilarli darajada kuchaytirmoqda.



Turkiya va O'zbekiston o'rtasidagi savdo-iqtisodiy hamkorlik so'nggi yillarda izchil va barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Xususan, 2024-yil yakunlariga ko'ra ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro savdo hajmi 3,3 milliard AQSh dollariga yetdi. Savdo aloqalarining yangi bosqichi 2016-yildan boshlab shakllandi. Mazkur yilda ikki tomonlama savdo hajmi 1,242

milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich tezda oshib bordi: 2020-yilda 2,1 milliard dollarni, 2023-yilda 3,1 milliard dollarni va 2024-yilda 3,3 milliard dollarni tashkil etdi. Ushbu dinamika ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning kengayib borayotganini ko'rsatadi. Tomonlar yaqin istiqbolda savdo hajmini 5 milliard dollarga, uzoq muddatli strategik maqsad sifatida esa 10 milliard dollarga yetkazishni rejalashtirmoqda. Savdo aloqalarining kengayishi natijasida Turkiya O'zbekistonning eng muhim tashqi savdo hamkorlaridan biriga aylandi. 2016-yilgacha ham O'zbekistonning yetakchi savdo hamkorlari qatorida bo'lgan Turkiya so'nggi yillarda umumiy tashqi savdoda taxminan 5 foizlik ulush bilan mamlakatning to'rtinchi yirik savdo hamkoriga aylandi. Turkiya O'zbekistonda tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni bo'yicha ham yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Savdo-iqtisodiy hamkorlikning kengayishi natijasida Turkiya 2021-yilda O'zbekistonning to'rtinchi eng yirik tashqi savdo hamkoriga aylandi. Investitsiya loyihalari doirasida bir qator yirik turk kompaniyalari bilan hamkorlik yo'lga qo'yildi. Çalık Holding, Akaya İnşaat hamda Varnet kabi kompaniyalar O'zbekistonda turli investitsiya loyihalarini amalga oshirmoqda. AKSA Energy, Odash Energy va Cengiz Energy kompaniyalari bilan hamkorlikda 6 ta issiqlik elektr stansiyasini barpo etish bo'yicha yirik loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu loyihalarning to'rttasi allaqachon ishga tushirilgan bo'lsa, yana ikki stansiyaning foydalanishga topshirish rejalashtirilgan.

100 dan ortiq turdagi foydali qazilma konlariga ega bo'lgan O'zbekiston tabiiy resurslarga boy mamlakatlardan biri hisoblanadi. Mamlakat hududida oltin, mis, kumush, qo'rg'oshin, rux, uran, volfram, tabiiy gaz va boshqa ko'plab yer osti boyliklari mavjud. Oltin zaxiralari bo'yicha O'zbekiston dunyoda yetakchi o'rinlardan birini egallab, global miqyosda to'rtinchi o'rinda turadi. Bu esa mamlakatning kon-metallurgiya sanoati hamda eksport salohiyatini shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ko'ra, 2025-yilda mamlakat yalpi ichki mahsuloti taxminan 147,06 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda, jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulot esa 3844 dollarni tashkil etdi. 2024-yilda O'zbekiston tashqi savdo faoliyatida ham sezilarli ko'rsatkichlarga erishdi: mamlakat eksport hajmi 31,9 milliard dollarni, import hajmi esa 55,5 milliard dollarni tashkil etdi. Shu davrda Turkiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalar ham faol rivojlanib bordi. 2024-yilda O'zbekistonning Turkiyaga eksporti 2,2 milliard dollarni, Turkiyadan import hajmi esa 1,1 milliard dollarni tashkil etdi. Natijada Turkiya O'zbekistonning to'rtinchi yirik savdo hamkori sifatida tashqi savdoning taxminan 3,6 foizini egalladi. Ikki davlat o'rtasidagi savdo aloqalarini yanada kengaytirish maqsadida o'zaro savdo hajmini o'rta muddatli istiqbolda 5 milliard dollarga, uzoq muddatli istiqbolda esa 10 milliard dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda O'zbekistonda turk

kapitali ishtirokida tashkil etilgan 2137 ta kompaniya faoliyat yuritmoqda. Ular asosan to'qimachilik sanoati, pudratchilik va qurilish, oziq-ovqat sanoati, qishloq xo'jaligi, mehmondo'stlik va turizm, qurilish materiallari ishlab chiqarish, plastmassa sanoati, farmatsevtika hamda xizmat ko'rsatish sohaslarida faoliyat olib bormoqda. Ushbu korxonalar ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish hamda texnologik tajriba almashinuvini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi hamkorlik

Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi hamkorlik O'zbekiston mudofaa salohiyatini mustahkamlash, transport yo'laklari va O'rta Koridor xavfsizligini ta'minlash, mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlash hamda noqonuniy migratsiya va kontrabanda kabi transmilliy tahdidlarga qarshi kurashish yo'nalishlarida rivojlanmoqda. Shu maqsadda harbiy hamkorlik va mudofaa sanoati sohasini qamrab olgan bir qator bitimlar imzolangan. 2022-yil 29-mart kuni Toshkent shahrida "Turkiya Respublikasi hukumati va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasidagi harbiy doiraviy bitim" imzolandi. Ushbu bitim harbiy tayyorgarlik va qo'shma mashqlar o'tkazish, mudofaa sanoatini rivojlantirish, qurolli kuchlarni zamonaviy texnika bilan jihozlash, harbiy razvedka va logistika sohaslarida hamkorlikni kengaytirish, shuningdek harbiy tibbiyot, kommunikatsiya, elektronika, axborot tizimlari va kibermudofaa kabi sohalarda o'zaro aloqalarni rivojlantirishni nazarda tutadi. 2021-yil 23-mart kuni Anqara shahrida "Turkiya Respublikasi hukumati va O'zbekiston Respublikasi hukumati o'rtasida mudofaa sanoati sohasida hamkorlik to'g'risidagi bitim" imzolandi. Ushbu kelishuvga muvofiq, mudofaa mahsulotlari va xizmatlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish, xarid qilish, texnik xizmat ko'rsatish hamda logistika ta'minoti sohaslarida hamkorlikni kuchaytirish orqali ikki davlat mudofaa sanoati salohiyatini oshirish maqsad qilingan. Erishilgan kelishuvlarni amaliy jihatdan ro'yobga chiqarish uchun institutsional mexanizmlar ham shakllantirildi. Ikki mamlakat tashqi ishlar vazirlari, ichki ishlar vazirlari hamda razvedka idoralari rahbarlari ishtirokidagi "3+3" formatidagi uchrashuv birinchi marta 2024-yil 11-12-sentabr kunlari Toshkent shahrida bo'lib o'tdi. Mazkur uchrashuv yakunida hamkorlikni tizimli ravishda rivojlantirishga qaratilgan "Yo'l xaritasi" hujjati imzolandi. Keyinchalik ushbu mexanizm mudofaa vazirlarini ham qamrab olgan holda kengaytirilib, "4+4" formatiga o'tkazildi. Ushbu yangi formatdagi birinchi uchrashuv 2026-yil 20-yanvar kuni Anqara shahrida tegishli vazirliklar rahbarlari ishtirokida bo'lib o'tdi. Mazkur mexanizm O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi xavfsizlik, mudofaa va razvedka sohaslaridagi hamkorlikni institutsional asosda rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

O‘zbekiston – Turkiya munosabatlarida strategik chuqurlashuv: 4+4 mexanizmi 2026-yil 20-yanvar kuni Anqara shahriga O‘zbekiston delegatsiyasining yuqori darajadagi tashrifi O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi strategik hamkorlik rivojida muhim bosqichlardan biri sifatida baholanadi. Mazkur tashrif davomida siyosiy, iqtisodiy, transport, mudofaa va xavfsizlik sohalarini qamrab olgan qator strategik bitimlar imzolandi. Ushbu jarayonning eng muhim natijalaridan biri sifatida “4+4” mexanizmining shakllantirilishini ko‘rsatish mumkin. Mazkur mexanizm tashqi ishlar, mudofaa va xavfsizlik sohalarida muntazam hamda muvofiqlashtirilgan muloqot va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyatlarini kengaytiruvchi institutsional platforma sifatida xizmat qiladi. 2021-yil mart oyida Toshkent va Anqara shaharlarida imzolangan hamda 2024-yil sentabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan ratifikatsiya qilingan “O‘zbekiston va Turkiya hukumatlari o‘rtasida mudofaa sanoati sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi bitim” ikki davlat o‘rtasidagi harbiy-sanoat kooperatsiyasi uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Mazkur hujjat mudofaa texnologiyalarini ishlab chiqish, qo‘shma loyihalarni amalga oshirish, texnik xizmat ko‘rsatish va logistika ta‘minotini rivojlantirish kabi yo‘nalishlarni qamrab oladi. 2025-yil oxirida Anqarada O‘zbekiston mudofaa vaziri general-leytenant Shuhrat Xolmuhamedov hamda Turkiya milliy mudofaa vaziri Yaşar Güler tomonidan 2026-yilga mo‘ljallangan harbiy hamkorlik rejasi imzolandi. Ushbu hujjat qo‘shma harbiy mashg‘ulotlar, kadrlar tayyorlash, harbiy ta‘lim, logistika hamda mudofaa sanoati sohasidagi hamkorlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berdi. So‘nggi yillarda Turkiya mudofaa sanoati global miqyosda tez sur‘atlar bilan rivojlanib, ayniqsa uchuvchisiz harbiy qurilmalar bozorida yetakchi o‘rinlardan birini egallab bormoqda. TAI ANKA turidagi uchuvchisiz uchish apparatlaridan Turkiya qurolli kuchlaridan tashqari Jazoir, Qozog‘iston, Tunis, Malayziya, Indoneziya va Chad armiyalari ham foydalanmoqda. 2023-yil noyabr oyida O‘zbekiston Qurolli Kuchlari Oliy Bosh Qo‘mondoni, Prezident Shavkat Mirziyoyevning Surxondaryo viloyatidagi harbiy qismga tashrifi davomida Turkiyada ishlab chiqarilgan Bayraktar TB2 razvedka-zarba dronining parvozi namoyish etildi. Ushbu voqea ikki davlat o‘rtasidagi harbiy-texnik hamkorlikning amaliy natijalarini namoyon etuvchi misollardan biri sifatida e‘tirof etiladi. 2026-yilga mo‘ljallangan harbiy hamkorlik rejasi doirasida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida bir qator amaliy yo‘nalishlarda hamkorlikni rivojlantirish nazarda tutilgan. Ushbu hamkorlik ikki davlat qurolli kuchlari o‘rtasida tajriba almashinuvi, harbiy tayyorgarlikni takomillashtirish hamda mudofaa salohiyatini mustahkamlashga qaratilgan. Rejaga muvofiq, quyidagi asosiy yo‘nalishlarda hamkorlik amalga oshirilmoqda:

- Qo‘shma o‘quv mashg‘ulotlari. Ikki davlat qurolli kuchlari o‘rtasida harbiy qismlar darajasida birgalikdagi o‘quv mashg‘ulotlari va treninglar o‘tkazish rejalashtirilgan. Bunday

mashg'ulotlar qo'shinlarning operativ tayyorgarligini oshirish, zamonaviy harbiy taktikalarni o'rganish hamda qo'shma operatsiyalarni muvofiqlashtirish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Shaxsiy tarkib almashinuvi. Harbiy xizmatchilar va mutaxassislar almashinuvi orqali tajriba o'rganish dasturlari amalga oshirilmoqda. Ushbu dasturlar harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni kengaytirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda professional malakani oshirishga qaratilgan.

- Texnik hamkorlik. Harbiy texnika va qurollanish sohasida hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy harbiy texnologiyalar bilan tanishish hamda texnik xizmat ko'rsatish va logistika sohasida tajriba almashish yo'lga qo'yilgan. Bu yo'nalish qurolli kuchlarning texnik modernizatsiyasini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

- Harbiy-tibbiy tayyorgarlik. Harbiy tibbiyot sohasida hamkorlikni rivojlantirish, harbiy shifokorlarni tayyorlash, harbiy gospitalarni boshqarish tajribasini o'rganish hamda zamonaviy tibbiy texnologiyalarni joriy etish bo'yicha qo'shma dasturlar amalga oshirilmoqda.

Hozirgi vaqtda Turkiya oliy ta'lim muassasalarida taxminan 3 ming nafarga yaqin O'zbekiston fuqarolari tahsil olmoqda. Ularning muayyan qismi Turkiya Burslari stipendiya dasturi doirasida moliyalashtiriladi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi aloqalar nafaqat iqtisodiy sohada, balki madaniy va turizm yo'nalishlarida ham jadal rivojlanmoqda. Ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish, sanoat, infratuzilma, energetika, to'qimachilik, qurilish hamda agrar sektorlar hisoblanadi. O'zbekiston Turkiyaga asosan paxta xomashyosi va to'qimachilik mahsulotlarini eksport qiladi. Ushbu mahsulotlar ikki davlat o'rtasidagi savdo aylanmasining muhim qismini tashkil etadi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mahsulotlari meva-sabzavotlar, quritilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan bir qatorda mineral xomashyo va kimyo sanoati mahsulotlarini ham eksport qiladi. Bular qatoriga metall va metallardan tayyorlangan turli sanoat mahsulotlari ham kiradi. O'z navbatida Turkiyadan O'zbekistonga sanoat mashinalari, avtomobillar, qishloq xo'jaligi texnikasi, to'qimachilik sanoati uchun zamonaviy uskunalar va materiallar import qilinadi. Bu jarayon ikki mamlakat iqtisodiyotining o'zaro to'ldiruvchi xususiyatga ega ekanini ko'rsatadi. O'zbekiston va Turkiya o'rtasidagi qo'shma korxonalar soni ham izchil ortib bormoqda. Turkiyaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi boshqa davlatlarga nisbatan O'zbekistonga ko'proq investitsiya kiritayotgani mamlakatning siyosiy barqarorligi, iqtisodiy o'sish sur'atlari hamda boy tabiiy resurslarga ega ekanligi bilan izohlanadi. Mazkur omillar O'zbekistonni mintaqadagi muhim iqtisodiy hamkor va investitsiya yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy, madaniy va sivilizatsion yaqinlikka asoslangan holda shakllangan bo‘lib, zamonaviy davrda strategik sheriklik darajasiga ko‘tarilmoqda. Ikki davlat o‘rtasidagi hamkorlik siyosiy-diplomatik aloqalar, savdo-iqtisodiy hamkorlik, investitsiya, transport-logistika, ta‘lim, turizm va madaniyat sohalarida izchil rivojlanib bormoqda. Bu jarayon ikki tomonlama manfaatlar uyg‘unligi hamda mintaqaviy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan umumiy strategik maqsadlar bilan belgilanadi. Oxirgi paytlardagi geosiyosiy terbanishlar va keskinliklarning ortishi ikki davlat o‘rtasidagi harbiy hamkorlikni ortishiga sabab bo‘lmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Harbiy tibbiyotdan migratsiyagacha. O‘zbekiston va Turkiya o‘zaro hamkorlikka oid 13 ta hujjat imzoladi <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/29/signings/>
2. Mehmet Seyfettin EROL’un O‘zbekistan 24 Televizion Kanali ile Gerçekleştirdiği Röportaj Yayımlanmıştır <https://www.ankasam.org/ankasam-baskani-prof-dr-mehmet-seyfettin-erolun-ozbekistan-24-televizyon-kanali-ile-gerceklestirdigi-roportaj-yayimlanmistir/>
3. Sinan TAVUKCU. (2026). Yükselen Özbekistan-Türkiye İlişkileri, <https://www.sde.org.tr/sinan-tavukcu/genel/yukselen-ozbekistan-turkiye-iliskileri-kose-yazisi-62725#:~:text=Bir%20yandan%20iki%20%C3%BCIke%20aras%C4%B1nda,ve%20entegrasyon%20%C3%A7abas%C4%B1%20takdirle%20kar%C5%9F%C4%B1lanmaktad%C4%B1r>
4. Shavkat Mirziyoyevga Bayraktar TB2 zarba beruvchi droni tanishtirildi <https://www.gazeta.uz/oz/2023/11/17/bayraktar/>
5. O‘zbekiston – Turkiya: Tarix va islohotlar mushtarakligi <https://yuz.uz/uz/news/ozbekiston--turkiya-tarix-va-islohotlar-mushtarakligi>
6. O‘zbekiston – Turkiya: hamkorlikning yangi bosqichi <https://president.uz/oz/lists/view/1175>
7. O‘zbekiston va Turkiya Prezidentlari Samarqandda uchrashuv o‘tkazdilar <https://yuz.uz/uz/news/60564>
8. O‘zbekiston – Turkiya: vaqt sinovidan o‘tgan do‘stlik va hamjihatlik <https://dunyo.info/actual/uzbekistan-turciya-druzhba-i-solidarnost-proverennye-vremenem>
9. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi keng qamrovli strategik sheriklik yanada rivojlantiriladi https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-va-turkiya-ortasidagi-keng-qamrovli-strategik-sheriklik-yanada-rivojlantiriladi_813103
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy davlatlar tashkiloti sammitidagi nutqi <https://president.uz/oz/lists/view/8549>

11. O‘zbekiston-Turkiya o‘rtasidagi savdo hajmi 5 milliardlik marraga yaqinlashmoqda <https://qalampir.uz/uz/news/zelenskiy-siyesatchilar-ichidagi-eng-buyuk-savdogar-tramp-10282>
12. O‘zbekiston tashqi savdo faoliyatining 2019 yil yakunlari e‘lon qilindi <https://m.kun.uz/news/2020/01/17/ozbekiston-tashqi-savdo-faoliyatining-2019-yil-yakunlari-elon-qilindi?q=%2Fuz%2Fnews%2F2020%2F01%2F17%2Fozbekiston-tashqi-savdo-faoliyatining-2019-yil-yakunlari-elon-qilindi#:~:text=Qayd%20etilishicha>
13. O‘zbekistonda chet el kapitali ishtirokidagi korxonalar soni 18 mingtadan oshdi <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/66250-zbekistonda-chet-el-kapitali-ishtirokidagi-korkhonalar-soni-18-mingtadan-oshdi-2>
14. O‘zbekiston va Turkiy dunyo: tashqi savdo aylanmasi 8,3 milliard, eksport hajmi 3,1 milliard dollarni tashkil etdi <https://yuz.uz/uz/news/64959>
15. O‘zbekiston iqtisodiyoti 2025 yilda 7,7 foizga o‘sdii <https://kun.uz/news/2026/01/23/ozbekiston-iqtisodiyoti-2025-yilda-77-foizga-osdi>
16. O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkiya Respublikasi Hukumati o‘rtasida mudofaa sanoati sohasida hamkorlik to‘g‘risidagi Bitimni (Toshkent, 2021-yil 2-mart va Anqara, 2021-yil 23-mart) ratifikatsiya qilish haqida <https://lex.uz/docs/-7111526>
17. O‘zbekiston va Turkiya harbiy hamkorlik to‘g‘risida yangi bitimni imzoladi <https://www.gazeta.uz/oz/2026/01/21/mudofaa/>
18. Türkiye ve Özbekistan diplomatik ilişkilerinin tesisinin 33 yılını kutluyor <https://www.aa.com.tr/tr/gundem/turkiye-ve-ozbekistan-diplomatik-iliskilerinin-tesisinin-33-yilini-kutluyor/3499153>
19. “Turk dunyosining integratsiyasi muhokama qilinadi” — turkiyalik tadqiqotchi Shavkat Mirziyoyev tashrifi haqida <https://daryo.uz/2026/01/29/turk-dunyasining-integratsiyasi-muhokama-qilinadi-turkiyalik-tadqiqotchi-shavkat-mirziyoyev-tashrifi-haqida/>
20. Turkiya Prezidenti Erdo‘g‘an O‘zbekistonga keladi <https://zamin.uz/uz/jamiyat/33692-turkiya-prezidenti-erdugan-uzbekistonga-keladi.html>
21. Turkiya musulmon davlatlardan O‘zbekistonga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni bo‘yicha yetakchiga aylandi <https://kun.uz/67190565?q=%2F67190565>
22. Yana 45 davlat fuqarolari O‘zbekistonga vizasiz kirishi mumkin (to‘liq ro‘yxat) <https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/yana-45-davlat-fuqarolari-uzbekistonga-vizasiz-kirishi-mumkin-tuliq-ruyxat>

23. Qatardan munosabat: O‘zbekiston va Turkiya munosabatlarining kuchli dinamikasi ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy iroda hamda tarixiy qardoshlik rishtalari tufaylidir <https://dunyo.info/uz/actual/vzglyad-iz-katara-uzbekistan-i-turciya-ukreplyayut-strategicheskoe-partnerstvo>

24. 2021-yilda 44 ming 168, 2022-yilning 9 oy davomida 56 ming 792 turkiyalik turistlar tashrif buyurdi. <https://yuz.uz/uz/news/64953#:~:text=Shundan%2C%2030%20foizi%20Qozog%CA%BBistondan%20tashrif%20buyuradigan%20turistlar,buyurganlar%20sayyohlar%20soni%2041%20ming%20299%20kishini.>